

BIRINCHI



KITOBIM

SHE'RLAR



TONG
XUMORI

NURULLOH NE'MAT

821
11-52

801
N-52


O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"JOD" JAMOAT FONDI

NURULLOH NE'MAT

SONG XUMORI

She'rlar

- 1506 -



OL'DOZUQ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAXSUS TALIM VAZIRLIQ
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI!
1-FILIAL

TOSHKENT

"ADABIYOT" O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
2020 VA ORTA MAXSUS TALIM VAZIRLIQI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI!

Nashr uchun mas'ul:

Jo'rabek LAHON

Mas'ul muharrir:

Farog'at XUDOVQULOVA

Ushbu to'plamda jamlangan she'rlarni o'qib, Nurulloh singari iste'dodli ijodkorlar borligidan quvonmasligingiz dargumon. Uning she'rlarida vodiyning samimiylasi ufaci turadi. Yozganlarida go'zallikka havasmandlik, orzu-unidarni yuksak pardalarda kuylaganimi ko'rasiz. Uning borliqni cho'ng tushunchalar bilan tashbehlashga, so'z ila tabiatni chizishga harakat qilganligining guvohi bo'lasiz.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat kengashi tomonidan nashryga tavsiya qilinib, "ijod" jamoat fonda tomonidan moliyalashtirilgan.

UMIDLI IJODKOR

Nurulloh Abdushukurov o'rta maktabda o'qiyotgan yillaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyati bo'limi qoshidagi "Bobur izdoshlari" adabiy to'gargi a'zosi sifatida mashqlari bilan ustozlari-yu tengdoshlarining e'tiborini tortgan. Ayniqsa, "Onajon", "Oymi o'g'irlay", "Tong", "Shavkat Rahmon", "Mustaqil" kabi she'rlarini ijodkor do'stleri ham yod biladi. Bu esa yosh shoirning qalblarga yetib bora oladigan satrlar egasi ekanligining yorqin isboti. "Bir shapaloq uring onajon" deb yozadi u "Onajon" she'rida. Ushbu she'riming tarbiyaviy jihatida, undagi maqsad badiiy so'z san'ati vositasida ravon, sodda va dilga juda tanish, yaqin tarzida ifoda etilgan.

Nurullohning yozganlarida yangi, ohori to'kilmagan qofiyalar, o'xshatishlar, topildiq misralar bor. Shuning uchun uning she'rlaridagi obrazlilik o'quvchini o'ziga tortib turadi. "Oyni o'g'irlay" she'rida esa:

ISBN 978-9943-6781-0-1

© N. Ne'mat, 2020
© "Adabiyot", 2020

*Nafasimni to'ldirib she'rga,
O'qib bo'ldim Shavkat Rahmonni.*

Singlim bilan qaldirg'och birga

*Sarishtalab qo'ydi ayvонни, – deya chiroyli
satrlar tizadi.*

Yosh shoir she'rlari ortiqcha izoh, maqtov
talab etmaydi, turli murakkabliklardan yiroq.
Satrlari, ifodalari, fikrlari qanchalik ohorli
bo'lsa, shunchalik sodda va yoqimli. Bir so'z
bilan aytganda, Nurulloh Ne'matning she'rlari
taqlid, umumiylikdan yiroq. Ushbu kitobni
mutolaa etish jarayonida ravon, dilga yaqin,
quyma, hayotiy satrlarga duch kelgan she'r-
xon zavq tuyadi, deb o'layman.

Xurshida VAHOBJON qizi,
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, shoira.*

GAPIRDIM

Bahorni qo'imsagan maysaman,
Ko'nglimni uyg'otdi buloqlar.
Osmomni bag'rimga bosaman,
Arazlab qolmasa tuproqlar.

Daraxthlar sindirdi tishini,
Ko'zimga gullarni yashirdim.
Qushlarning tilini tushunib
So'zlashgan barglardek gapirdim.

Kaftimda o'ynagan shudringdan
Muzlagan oy'larim ziloldir.
Oftobim, qo'rqaman nuringdan,
Yuzimda aks etgan hiloldir.



BOĞ' ICHIDA

Bog' ichida oralar qo'rquv,
Daraxtarning o'chgangandek rangi.
Tovonimda qimilaydi suv,
Yer chizig'i - ariqlar yangi.

Men o'zimga qidiraman joy,
Sham sochiga tutaman gugurt
Va tuyular osmondag'i oy -
Pista idish ichidagi qurt.

Pichirlayman titroq ohangda
O'z so'zimga bo'lib intizor.
Gar uxlasmam, uyg'otar tongda
Tun ko'ziga berkingan bahor.

OYNI O'G'IRLAY

Tun. Quyoshsha aylandi xonam,
Tashqariga ochiq deraza.
Joynamozning ustida onam,
Niyati pok, istagi toza.

Nafasimni to'ldirib she'rga,
O'qir edim Shavkat Rahmonni.
Singlim bilan qaldirg'och birga
Sarishtalab qo'ydi ayvoni.

Barmog'inni sog'ingan dasta -
Ukam yotgan beshikdir eshik.
Qarib qolgan daraxtlar xasta,
Qarib qolgan devorlar kemshik.

Quchog'imga kirar shabada,
Erkalashga topolmayman so'z.
Koinotdek ulkan dalada
Ko'rinnmaydi birorta yulduz.

Bedor bo'ldim, tun bo'yи bedor
Ahvolimdan onam ham hayron.
Men o'g'riman, oyni o'g'irlay,
Ko'zlarining yumib tur, osmon!

BIR QARA

Qarasam, kipringing daraxtzor,
Ko'zlarin eslitar dengizni.
Yuzingda savolvash rang ash'or
Yozig'iliq, Nurillo yolg'izmi?

Javobim – bittaman, ming qirra,
Sen-menga borishmas maqsadim.
Ko'zingda suzaman, bir qara,
Yuragimdan qayiq yasadim.

YODIMDADIR

Yodimdadir qachon yig'lab, qachon kuldim,
Kim yig'latdi, kim yupatdi, ko'rdim, dada.
Bir dard keldi, birda tashvish, zo'r kuydirgi,
Birga ko'nmay "birlar"iga ko'ndim, dada.

Yo'l oksinar "endi senda shohman" desam,
Dadam tashlab ketgan bag'ri dog'man, desam,
Qani edi, kim so'rasa, tog'man, desam,
Qoyalardan yo kammidi ko'nglim, dada?

Rasmingizga tushkun qarab, tushkun qarab,
Qotib ketdim tovonimdan mushtim qadar.
Bir aylanib kirib qolgan tushimda ham
Demadingiz, "Omonmisan, o'g'lim", dada!

Yodimdadir qachon yig'lab, qachon kuldim,
Kim yig'latdi, kim yupatdi, ko'rdim, dada...

MEHR UNSIN!

Nurmuhammad akaga

Jinsuluv shamollar keldi kuzakiy,
Ko'nglimni titdilar titganday xazon.
Akam-a, sharobmas, savob uzating,
She'r unsin!
She'r unsin!
Va hokazo...

Villab yozolmadim ko'nglimni, savil
Yirtiq poyafzalim tersini o'nglab.
Ro'zg'or chin shoirning qo'jin qirqadi,
(Qayerdan tushunsin fikrati go'nglar.)

Vatami o'ylasam, kelar o'kiringm,
Dilim og'ushida ko'rgandek oyni.
Kimdir millat deb dildan o'kindi,
Vijdonini sotdi kimlardir, boyib...

Akam-a, sharobmas, savob uzating,
She'r unsin!
She'r unsin!
Va hokazo...
Shamoldan yuz burdim, kelgan kuzakiy,
Millatning ko'ngliga tushmasin xazon!

Kitobsiz... Kitobsiz... Havo yetmasdan,
Bilaman, kechirgan kechlарim harom.
Ertaga o'z boshin o'zi yemasmi,
Adabiyotsiz – adabsiz – fuqaro?!

O'zbeklar o'zligin borar unutib,
"Dilbuzar"ga berib yurak qo'rini.
Shaharda hayoning o'chmoqda quti,
Qushlarning qushligi qoldi ko'rini.

ONAJON

Qulog'imga kirmay qo'ydi gap,
Meni yo'ldan urdilar qachon?
Dangasam, deb maqtab, erkalab,
Bir shapaloq uring, onajon!

Tushmasidan ko'zim lolaga,
O'xshab qolsin yuzim lolaga.
Odam bo'lay Xudo xohlagan,
Bir shapaloq uring, onajon!

Odamlarga yuray maqtanib,
Ko'kragimni keray maqtanib.
Kaftingiz duoning vatani,
Bir shapaloq uring, onajon!

Qaynoq so'zlariningiz bulog'in
Kerak yuragimga quymog'im.
Ochilibilar ketsin qulog'im,
Bir shapaloq uring, onajon!

Qulog'imga kirmay qo'ydi gap...

YOLGA CHIQDIM

Uyingizza boraman bugun,
Yo'iga chiqdim, mana, yo'ldaman.
Osmon kosa, yarimlagan kun,
Ana, uyg'oq atirgullar ham.

To'rt oyoyqlab ketyapman, jigar -
Qizz'aldoqqa kelmaydi malol,
Izlarimga bahorlar tilar,
Izlarimga tushgan qiz-shamol.

Biling, sizni olib ketaman,
E'tir ozga o'r'in yo'q bunda.
Nafasim-la taqillatarmen,
Eshigingiz ocharsiz shunda.

QO'NG'IROQ QILAMAN

Qo'ng'iroq qilaman, ovozim
Qulog'ingni qo'yar qovurib.
Ishqimiz gullaydi, tannozim,
Sen meni, men seni sog'inib.

Ayrildik, qayrildik hijronga,
Tuyg'ular qolgandek bo'g'ilib.
Azoblar solgamniz qo'shjonga,
Men seni, sen meni sog'inib.

Kelmasang yonimga, kelmasang,
Borliq mendan yuz o'giradi.
Qaniydi, jonimda gullasang,
To'xta! Bizni kim sog'inadi?

Siz tongsiz, men tongni sog'indim,
Havosiz yashholmam, havosiz.
Sochingiz bahoriy yomg'irning
O'g'irlab olganmi jilosin?

Har oni bir asr lahzalar
Ma'yuslik chizganda yuzimga,
Shaharlik shovqinlar darg'azab,
G'ildiraklar chalat musiqा...

Ortda qolmay poyabzallardan,
Dadil yurdim bir sizni o'ylab.
Dumaladim goh asfaltlarda,
Goh chiqdilar izimdan yo'llar.

Beorum tunlarda oh urib,
Iztiroblar chekdim-o, totli!
Mana, qaytib keldim oxiri,
O'zingizni osmonga oting!!
O'zingizni osmonga oting!!!

TONG

MUSTAQIL

Ochiq ayvon, so'rining usti,
Yonboshladim to'shakka sekin.
Atirgullar singlimming do'sti,
Nastarinlar ko'zimga yaqin.

Ro'paramda ko'k soqol daraxt,
Uy sahniga sanchilgan o'rik.
Kuchukchamning yotgan yeri taxt,
Tandir tagin saroy der, sho'rlik.

Men radio qulog'in burab,
Sokinlikka jo'shqinlik qo'shdim.
Devorimdan dadil mo'rabal,
Tinchlik bormi, dedi yon qo'shni.

Hech zog'meni tushunmaydi-ya,
Yoqtirmayman sur odamlarni.
Mening uyim, xohlasam, deya,
Tinglayverdim yurak g'amlarim.

UZR

Qarolmayman bahor ko'ziga,
Vujudimga qo'rquv yastandi.
Iz tashladim burgut iziga,
Shunda qaddim tog'dek rostlandi.

Oq dalaga chizib ko'k rasm,
Shiliqqurtday to'lg'onar ariq.
Dahshatidir suvdagi aksim,
Nigohimming yuragi chandiq.

Qarolmayman bahor ko'ziga...

- 1506 -

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
OLİY VA ORTA MÄKSÜS TÄLİM VAZRUGI
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-2011-1

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
OLİY VA ORTA MÄKSÜS TÄLİM VAZRUGI
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TIRILISH ILHOMLARI

TURKUMIDAN

1.

Tuyg'ular uyg'ondi, tirildi ko'nglim
Dunyoni uyg'otgan quyoshday xuddi.
Oyog'imdan tortar tortinchoq yo'ling,
O'zimni unutdim – barin unutib...

Teraklar saf tortgan – qo'li ko'ksida,

Jiydalar diydamdek tosh qotgan hislar.
Ashaddiy oshiqning xuddi o'zmanan,
Ashaddiy Majnunman – ko'ngli yalpiza.

Muhabbat – buloqsuv tutgan hovuchday,
lymon-e'tiqodday pokdir shunchalar.
Uni deb yettinchi osmondan tushdim,
Ay, kapalak kulgich, ayo, g'unchalab.

Men seni sog'indim, o'zi kechirsin,

O'zi shifo bersin dardi borlarga.
Umidlar uzilmay zanjir yechiidi,
Oyoqlar, oyoqlar intizorlangan.

Ko'zlarining hadsizdir, kunin ko'rар deb,

Haddim siqqanidan, bosh uray qayga?!

Sevgimi rad etgin, ko'nglimni rad et,
Quyoshing botishin istasang agar...

2.

Bo'ronga aylandim, bo'ldi, bo'lmadi,
Qidirdim undan-da kuchliroq shiddat.
To'xtab tur, ko'zingga qarab to'ymadim,
To'ymadim bejirim jilmayishingdan.

Ichimda ichikkan olov qurmag'ur
Yoqib tashlamoqqa tayyor dunyoni.
Bag'rimni kuydirar – soching turmag'i,
Endi rost Ehtiros, komil iymonim.

Holim yo'q, nigohing asirligida
Sovqotgan daraxtdek titrar tizlarim.
Qish qaytmas ortiga fasl ilmidan
Dars berar: tobora kunilar qisqarur.

Shoyadki, qor yog'mas qabobqlaringdan,
Sovuq qaramaysan ishqiy jumlikka.
O'zimni yo'qottib qaroqlaringda –
Qayta bino bo'ssam ko'ngil ilmingdan.

Bo'g'zim bo'g'ozidan toshib chiqar she'r,
Tishimni sindirib.. sezsa qolgin-a.
Yiqildim, qo'lni ber, sun'iy nafas ber,
Men esa, jonimni beray, jonginam!

SHAWKAT RAHMON

Manzura, tayyorlan, ketamiz O'shga,
Bizni tog'lar kutar – ko'zi mo'lirab.
Netay, jon qarzim bor Xalq bergen ishqdan,
Ishq meni istagan yerda o'ldirar!

Kelajak, kelajak shoshilmay, yovqalb,
Bo'ronday beqaror, shamolday sodda,
Avlodmisan avlod, jo'mard avlodlar,
She'rxonni to'rt qator she'nda o'ldirar!

Yoqamni yirtvordi buyuk hayajon,
Kimga ag'yor, kimga suyuk hayajon,
Ojiza juvonday kuyuk hayajon,
Hayajon shoirni tezda o'ldirar.

Ko'zinga tik qara, mana, masalan:
Bir bahona, xolos, savil kasalim.
Ertalidiradi Xalqning nazari,
Xalqning muhabbatli erta o'ldirar!

HADIK

Uchrab qolsang, nima derkinman,
Senga yo'llar yo'llar o'ng'aysiz.
Shamollar ortiga berkinma,
Qovurg'amdan bino bo'lgan qiz!

Gunoh ichra ungan xotiram,
Gar gullasa, qolgum dovdirab.
Borliging esimdan og'dirar,
Qovurg'amdan bino bo'lgan qiz!

Oldingda aybdorman, vodarig',
Ayblarim o'ngolmam og'darib.
Yuzimda soddalik – soxtalik..
Qovurg'amdan bino bo'lgan qiz!

Tog'day alam bag'rimni tildi,
Vafoси yo'q hislarni bildim.
Tavba qildim.
Sen nima qilding,
Qovurg'amdan bino bo'lgan qiz?!

...GA

Qozonmadim e'tiboringni,
Olganim yo'q ko'nglingni tortib.
Qayg'urmagan endi, jon singlim,
Seni yaxshi ko'rmayman ortiq.

Unutmayman. Beraman va'da,
Firog'ingda qolmayman gangib.
Bosh olib ketaman shahardan,
Jannatni tark etganday g'amgin.

Ketding! Qoldim. Dahshat-intiqlik,
Yana kelsang, beparvo kelgin.
Men o'ksimay ko'kka tikilib,
Yerda tugab qolganday sevgi.

ONA

Ko'zoynakdan boqasiz siniq,
Ko'zingizning nuri memmidim?
Yo'llarimga qadalgan so'niq
Yuzingizning nuri memmidim?

Boshingizni og'ritib yurib,
Kechiring, deb ko'p gapirganman.
Farzandlikni oqlamay turib,
Sochingizni oqartirganman.

Kechirimli bolgansiz, ona,
Boshqalarga o'xshamaysiz-o.
Mehringizning taftidan yonib,
Shoir bo'lib ketsaydim tezroq.

Meni kutib turibdi dunyo,
Lek haliyam o'zgarolmadim.
Yuzlab kitob o'qirdim, ammo
Ko'nglingizni ko'tarolmadim.

Kechiring, deb ko'p gapirganman.

VİJDONLI OSHIQ

Nigohim poyingga tushdi yiqlilib,
Lahzalar qo'silkib seni chorladi.
Sen kelding yetaklab yetti iqlimni,
Ilohiy tuyg'ular qoldi jonlanib.

Borlig'im qayg'udan burdi yuzini,
Yuzimga tabassum chizgach diydoring.
Shundog'am kutgandim, ming yil ezilib,
Nurab borayotgan g'arib binodek.

Ko'zingga ko'rinnas qalbim isyonii...
O, o'timish tilimi qisadi biram.
Qo'lingdan ushlashga qo'ymas vijdonim,
Sengacha mingrasin sevdim dovdirab.

Ko'nglimni chang bosgan alдов qo'ynida,
Qo'sida pand yedim ojizalarning.
Hatto qo'ymadilar yo'llimi o'nglab,
Mo'jazgina dunyo mo'jizalari.

Armonlarim yig'lar chiqib osmonga,
Ko'zimga ko'rinar hadsizlik qadri.
Sevgilim, o'zing ayt, kim ishqidan tongan?..
Ko'nglingni so'rashga sig'maydi haddim.

IZOHSIZ SOG'INCH

Javobingni kutdim, o'zingni kutdim,
Baborini kutgan daraxtday g'arib.
Ko'kargan savollar bog'zimdan tutdi,
Eyl Yoqolgan dunyom, diydori dariq'.

Oldin olg'ir edim, bo'ronday bedov,
Ko'zimga ilmasdim quyoshti, oyni.
Chirilloqlar bilan jo'r bo'sib bedor,
Kechalar nechalab taqdirmi koyidim.

Sabarlar hayqirib ismingni aytdim,
Ilar bitta harfini his qilib, asrab.
Muhabbat ko'ksingga chang solgan payti
Ayrilliq qoshingda chekarkan hasrat.

Ichikdim... hech kimga yormay ichimni,
Xilvatda ko'nglimni ko'zimdan to'kdum.
Javob ber, qaydasan, ol sog'inchingni,
Yo'qsa, chiqarolmam bo'g'zimdan ko'kni.

ORTIMGA QAYTMADIM

Og'ir kunlari ortda qolgan she'r

Ortinga qaytmadim, qaysarman,
Yo'llar tush ko'rmanan izimni.

"Bor" deding solmasdan paysalga,
Vaqtida umringdan uzildim.

Ortindan yugurdi nigolging,

Men esa ertamni quvladim.

Ismimni aytolma, iloho,

Meni deb urmasin yuraging!

Ko'zlarining ham dovdiramasin,
Kiprikdaring shundog'am siniq.

Ko'zyoshingning tog'dek hamlasi
Yubormasin husningni tilib.

Ochiilgan og'zing ham yopilmay,

Ketganimmi aytarsan xalqqa.

Mening ko'nglim noyob topilma,
Unga hech kim topolmas malham.

Kashf etgan ulug'im, didi nozigim,

Ha'zida gapingga kirmasam, kechir.

Axir, biz bir butun, axir, biz hozir

Avval seni borim qiyndardi,
Mana, endi qiyndaydi yo'g'im.

KO'NGLIM

Mening gulsevarim – gulquvar ko'nglim,
Hech qo'nim bilmaysan, tinim bilmaysan.
Topganing qolmaydi bag'ringga to'lib,
To'lganing arzondir, toshganing arzon.

Og'ir karvonimsan, yengil osmonim,

Mingta quyoshga ham dam berar tafting,
Showida bilganni titroqqa solib,

O'n sakkiz ming olam pishgan daraxtim.

Ko'nglim, koinotim, bayotim, dodim,

Oppoq qalding'ochim, ulkan qanotli.

Nozik tumshug'ingda cho'qiblar gohi,
Hug'rimni qonatding, tunni qonatding.

Hamishabahorim, hamishabedor,
Hamishama junnim, hamishazo'rim.

Odamlar yig'latsa, sen borsan debon,
O'zingga yig'larman to'g'ridan-to'g'ri.

Kashf etgan ulug'im, didi nozigim,

Ha'zida gapingga kirmasam, kechir.

Axir, biz bir butun, axir, biz hozir

Shu holda hech kimmiz, shu holda hech kim...

VIG'LAMAYMAN DEGIN

Qadoq g'unchalagan qo'lingni ko'rsat,
Chap ko'ksimga qo'ygin – so'z beraman deb.
Yig'layotgan yurak meniki bo'lsa,
Yig'lamayman degin, yig'lamayman de!

Olib berolmasam quyoshni uzib,
Qaro qilmayin deb ko'kning oq yuzin;
Meni deb qiyalsang, demasam uzb,
Yig'lamayman degin, yig'lamayman de!

O'ylasang ne kunlar tushmaydi esga,
Bolaman olamdan ertaroq bezgan.

Nogoh kulmay qo'ysam, es yiqrar kezlar...
Yig'lamayman degin, yig'lamayman de!

Yig'lasang, to'kilib ketaman rostdan,
(Baribir yupatib o'ktam ovozda),
Iltimos qilaman jumgina, unsiz,
Yig'lamayman degin, yig'lamayman de!

Men hali o'lmayman, ko'nglim tinch hali,
Muhabbat bor ekan, tursa may chalib.
Gar keragim bo'lsa ro'molchangchallik,
Yig'lamayman degin, yig'lamayman de!

CHIROYLI XATO

O'z vaqtida kelgani yaxshi,
O'z vaqtida kelar mashina.
Ko'zlarim ko'k bilan birlashib,
Bulutlarni qilar tarjima.

Yong'ir boshlanadi negadir,
Yechilgan bekatning kepaksi,
Tomchilar g'ashingga tegadi,
Dekabr uchirar yelkasin.

Bu ham bitta chiroyli xato,
Tabiatning ketgammi tomi?
Qahratonning ahvoli chattoq,
Qahratonga achiydi jonim.

Ko'zlarimga ishonmas shamol,
Ko'ksimga bosh qo'yar horganday...
Ho'l borishim judayam yomon,
Yoningizga
Quruq borgandan!

O'z vaqtida kelar mashina...

SHABNAM DONALARI

To'rtliklar turkumidan

Kapalagim

U bog'da ariga jilmaydi,
Gullarning bariqa jilmaydi.
Mendek g'o'r bog'bonga ishonib,
Yonimdan nariga jilmaydi.

Istak

Yo'lingdan chiqmayman, yo'lingdan chiqma,
Ko'nglsizlik qursin, ko'nglimidan chiqma.
Tashqari sovuqdir haddan tashqari,
Faqat tushimga kir, o'ngimdan chiqma...

O'xshatma

O'xshamaysiz, deding, hech kimga,
Tong otguncha, ne tong, shodlandim.
Halizamon xo'roz qichqirgay,
Ayt, shunchalik beo'xshovmanni?

Niyat

So'z shoirga berilgan havo,
Bo'g'ilasan payti kelganda.
Berar edim millionta savol,
Shavkat Rahmon qaytib kelganda!

MUNDARIJA

Xo'shida Vahobjon qizi. Umidi ijjodkor.....	3
Tog'erdin.....	5
Bog' Ichida.....	6
Oyu o'g'ilay.....	7
Qora.....	8
Vodimadra.....	9
Mohr umish.....	10
Onyon.....	12
Yolja chiqdin.....	13
Duroviroq qilaman.....	14
Tong.....	15
Mustaqil.....	16
Qar.....	17
Vilidin ihmolucl turkumidan.....	18
Imroqhat Rahmon.....	20
Hodik.....	21
Ba.....	22
O'm.....	23
Vilboldi oshiq.....	24
Ishiqat sog'inch.....	25
Onoma qayymadim.....	26
Kunglim.....	27
Vilqaymayman degin.....	28
Choyegi kato.....	29
Qilmon donalari.....	30

L.145 JAM

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

N 52

Ne'mat, Nurulloh.

Tong xumori [matn]: (*she'rilar*) / N. Ne'mat.
– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 32 b.

Adabiy-badiy nashr
NURULLOH NE'MAT

TONG XUMORI

She'rilar

Muharrir: D. Mingboeva

Badiy muharrir: F. Ermakov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahibh: Sh. Hakimova

Ozbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABBIYOT NASHRIYOTTI" MCH]

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.

📞 (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90¹/₃₂

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1.0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №380.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

ZM
000200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.